

Сенат ялпи мажлислар

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ettinchi

yalpi majlisida ko`rilgan masalalar to`g`risida

M A` L U M O T

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014 yil

5-6 dekabr kunlari bo`lib o`tgan ettinchi yalpi majlisida 26 ta masala muhokama etildi, shu jumladan 15 qonun ma'qullandi. Mazkur qonunlarning bittasi yangidan ishlab chiqilgan, 11 ta ta qonun esa amaldagi qonunlarga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish, uchta qonun xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish to`g`risidadir.

Senat vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarning ko`rib chiqilgani va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilingani ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Yalpi majlis kun tartibiga kiritilgan 26 ta masala muhokamasida 60 ga yaqin ma'ruzalar qilindi.

Oliy Majlis Senatining ettinchi yalpi majlisida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 19 yilligi munosabati bilan amnistiya to`g`risidagi masala ko`rib chiqildi.

Ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Senat Qarorining 1-bandiga muvofiq sodir etgan jinoyatlari uchun sudlangan (mazkur Qarorning 8-bandida ko`rsatilgan cheklashlarni hisobga olgan holda):

a) ayollar;

b) jinoyat sodir etgan etgan vaqtida 18 yoshga bo`lmaganlar;

v) 60 yoshdan oshgan erkaklar;

g) chet davlat fuqarolari jazodan ozod etiladi.

Qarorning 2-bandiga ko`ra, ehtiyoitsizlik orqasida jinoyat sodir etganlar, shuningdek birinchi marta hukm qilingan shaxslar, basharti ular ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etgan bo`salar, jazodan ozod qilinadi.

Senat Qarorining 3-bandida birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, shuningdek ushbu Qaror kuchga kirgunga qadar bir yildan oshmagan muddat ichida qonunda belgilangan tartibda jazoni o`tashga to`sinqinlik qiladigan og`ir kasallikka chalingan deb topilgan shaxslarni (javobgarlikni og`irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o`ldirish jinoyatini sodir etganlar bundan mustasno) jazodan ozod qilish belgilab qo`yildi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinib, o`talmay qolgan jazo muddati ikki yildan ko`p bo`lmagan mahkumlarni (javobgarlikni og`irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o`ldirish jinoyatini sodir etganlar bundan mustasno) jazodan ozod qilish Qarorning 4-bandida nazarda tutilgan.

Qarorning 5-bandiga asosan taqilangan tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki, ular tarkibida tinchlik va xavfsizlikka qarshi yoki jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etganligi uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilib, tuzalish yo`liga qat`iy o`tgan shaxslar jazodan ozod qilinadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinib, mazkur Qaror e`lon qilingan kunga o`talmay qolgan jazo

muddati uch yildan ko'p bo'lman shaxslarni manzil-koloniyaga o'tkazish Senat Qarorining 6-bandida belgilab qo'yilgan.□

Ushbu Qarorning 1 va 2-bandlarida qayd etilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan olib borilayotgan barcha ishlarni tugatish 7-bandda qayd etilgan.□

Senat Qarorining 8-bandiga muvofiq:□

a)□mazkur Qaror – umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan; o'ta xavfli retsidiivist deb topilgan; jinoiy uyushma tarkibida jinoyat sodir etgan; jazoni o'tash tartibini muntazam ravishda buzayotgan; shuningdek o'lim jazosi avf etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan shaxslarga;□

b)□mazkur Qarorning 1-bandi – o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga;□

v)□mazkur Qarorning 1-4, 6 va 7-bandlari – taqiqlangan tashkilotlar faoliyatidagi ishtiropi, ular tarkibida tinchlik va xavfsizlikka qarshi yoki jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir qilganligi uchun sudlanganlarga;□

g)□mazkur Qarorning 4–6-bandlari muqaddam amnistiya tartibida jazodan ozod bo'lgach, yana qasddan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mazkur Qarorning bajarilishini ta'minlash maqsadida Senat tomonidan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining o'n to'qqiz yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarorini qo'llanish tartibi haqida»gi Nizom tasdiqlandi.

* * *

Yalpi majlisda muhokama etilgan O'zbekiston Respublikasining 2012□yilgi Davlat byudjeti loyihasi mamlakatning barqaror makroiqtisodiy taraqqiy etishini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini, aholining real daromadlari o'sishi va turmush darajasi oshishini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida hamda mamlakat Hukumatining 2011 yil 21 yanvardagi majlisida belgilab berilgan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Byudjet barqarorligini ta'minlovchi samarali va barqaror soliq tizimini yaratish soliq siyosati sohasidagi ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

Sanoat sohasidagi korxonalar uchun uchun yagona soliq to'lovining stavkasini 6 foizdan 5 foizgacha pasaytirish ko'zda tutilgan. Bu ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan mikrofirma va kichik korxonalar ixtiyorida 50 milliard so'mdan ortiq mablag' ni qoldirish imkonini yaratadi. Foyda solig'ini to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadan qo'shimcha chegirmalar ham nazarda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyorida qo'shimcha ravishda 20 milliard so'mdan ortiq mablag' qoldirish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarini o'rtacha ikki baravar kamaytirish mo'ljallangan.

Pensiya jamg' armasining muvozanatliligini ta'minlash uchun fuqarolarning sug'urta badallari stavkasi 4,5 foizdan 5,5 foizgacha oshirilmoqda, shuningdek yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq solinadigan baza kengaytirildi.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash maqsadida 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab alkogolli mahsulotlar bo'yicha aktsiz solig'ini 5 foizdan 20 foizgacha, er solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 1,2 baravarga, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliqning amaldagi stavkasini 25 so'mga indeksatsiya qilish va oshirish nazarda tutilgan.

2012 yilda ham byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to`lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish davom ettiriladi, ta'lif muassasalarini saqlash xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 7,5 foizni, sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari 2,9 foizni tashkil etadi. Sog'liqni saqlash muassasalar uchun oziq-ovqat va dori-darmonlar xarajatlari 2011 yil uchun tasdiqlangan parametrlarga nisbatan 1,15 baravarga ko`paytiriladi.□

Ijtimoiy nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va kompensatsiya to`lovlar uchun byudjet mablag'larining hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,0 foizni tashkil etadi, ilm-fan sohasiga yo`naltiriladigan xarajatlarni joriy yilga nisbatan 1,3 baravarga oshirish, iqtisodiyot xarajatlarini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,5 foiz miqdorida belgilash nazarda tutilgan.□

2012 yilda markazlashgan investitsiyalar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,35 foizni tashkil etadi va ular:

qishloq xo`jaligini ishonchli va uzlusiz oqar suv bilan ta'minlash hamda suv resurslaridan samarali foydalanishga mo`ljallangan zarur irrigatsiya inshootlari qurilishini davom ettirishni;□
sog'liqni saqlash muassasalarini bosqichma-bosqich mukammal ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish dasturi doirasida sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurish hamda rekonstruktsiya qilishni;
tasdiqlangan Dasturga va qabul qilingan qarorlarga muvofiq ixtisoslashtirilgan ob'ektlar, chaqiruv va yig`uv punktlarini qurish hamda rekonstruktsiya qilishni;□
qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash uchun suv tarmoqlari hamda inshootlarini qurish va rekonstruktsiya qilishni;

xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda Hukumat kafolati ostida jalb qilingan kreditlar bo`yicha loyihalarni birgalikda moliyalashtirishni;

qishloq joylarda yangi barpo etilayotgan yashash maskanlarida ijtimoiy ob'ektlar qurishni;□
shaharlarning arxitekturaviy qiyofasini va shahar infratuzilmasini yaxshilash uchun ob'ektlarni qurish, rekonstruktsiya qilish va boshqa vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

2012 yilda Davlat byudjetining taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,0 foiz miqdorida bo`lishi ko`zda tutilgan.

* * *

Ettinchi yalpi majlisda tasdiqlangan 2012 yilda ish o`rnlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining maqsadi aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish, ish o`rnlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash asosida hududlar (shaharlar, tumanlar) va iqtisodiyot tarmoqlarining mehnat salohiyatidan samarali foydalanish uchun sharoit yaratishdan iborat.

2012 yilda mamlakat mehnat bozorida bandlikka bo`lgan ehtiyoj 1173,7 mingta ish o`rnini tashkil etadi, shundan 541,6 mingtasi ta'lif muassasalarini bitiruvchilarini, 614,1 mingtasi prognoz davri boshida ishga joylashishga muhtoj bo`lgan band bo`limgan va ishsiz aholini ishga joylashtirish uchun mo`ljallanadi. Dasturda 2012 yilda mamlakat bo`yicha jami 967,5 mingta ish o`rni tashkil etilishi ko`zda tutilgan. Ish o`rinlarining anchagina qismi Samarqand (93,4 ming), Farg`ona (91,8 ming), Qashqadaryo (88,3 ming), Toshkent (86,5 ming), Andijon (78,4 ming), Namangan (74,9 ming) viloyatlarida va Toshkent shahrida (81,3 ming) tashkil etiladi.□

Dasturni amalga oshirish bilan birga mehnat bozorida faol chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish mamlakat mehnat bozorida muvozanat saqlanishini ta'minlaydi.

Ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Senat Qarorida mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga Dasturning□ prognoz parametrlari□ tegishli hududlarda□ samarali bajarilishini ta'minlash, band bo`limgan aholini ishga joylashtirish, aholining ehtiyojmand toifalari, birinchi navbatda□ ko`p bolali ayollar, nogironlar va

ishsizlar□ bandligining□ samarali shakllarini rivojlantirish yo`li bilan□ ishsizlikning oldini olishga, oilaviy va xususiy□ tadbirkorlikni tashkil etishga,□ kasanachilik mehnatini rag`batlantirishga, ishdan ozod qilinayotgan xodimlarni hamda ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini, eng avvalo□ kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilarini olgan mutaxassisliklari bo`yicha ishga joylashtirishga□ alohida e'tibor berish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, Senat Qarorida Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shaharlar Kengashlari Dasturning ish o`rinlari tashkil etishning tegishli hududiy parametrlari bajarilishiga doir qismini ijro etishning borishini muntazam ravishda o`z sessiyalarida ko`rib chiqishlari, belgilangan parametrlardan orqada qolingga taqdirda ish o`rinlari tashkil etishning prognoz ko`rsatkichlarini so`zsiz ta'minlashga yo`naltirilgan qo`shimcha chora-tadbirlarni ko`rishlari lozimligi belgilab qo`yildi.

* * *

«O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining asosiy maqsadi davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik o`zgarishlarni O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» mavzuida qilgan ma'rzasida belgilangan vazifalar nuqtai nazaridan davom ettirishdir.

Qonun 1-moddasi bilan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi□

90-moddasining ikkinchi qismidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatiga taalluqli «etti yil» degan so`zlar «besh yil» degan so`zlar bilan almashtirildi.

Ushbu tuzatish davlat boshqaruvining demokratik printsiplarini, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlarni amalga oshirishda Oliy Majlisning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo`yicha mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarni, shuningdek rivojlangan demokratik mamlakatlarning ko`philigidagi qabul qilingan davlat qurilishi amaliyotini hisobga olgan holda kiritildi.

Qonunning 2-moddasiga muvofiq ushbu tuzatish Qonun kuchga kirganidan so`ng saylanadigan O`zbekiston Respublikasi Prezidentiga nisbatan qo`llaniladi.

* * *

«O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariга o`zgartishlar kiritish haqida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni bilan «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni 1-moddasining uchinchi qismidagi «etti yil» degan so`zlar «besh yil» degan so`zlar bilan almashtirildi, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni 1-moddasining birinchi qismidagi «besh yildan etti yillik qilib» degan so`zlar chiqarib tashlandi, 8-moddasining matnidagi «etti yil» degan so`zlar «besh yil» degan so`zlar bilan almashtirildi.

* * *

«O`zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining asosiy maqsadi jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish va yanada liberalallashtirish, jinoyat ishlari faqat jabrlanuvchining shikoyati asosida qo`zg`atilishi mumkin bo`lgan jinoyatlar ro`yxatini kengaytirishdan iborat.

Qonunga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining jabrlanuvchining shikoyatiga

asosan jinoyat ishi qo'zg' atishga bag'ishlangan 325-moddasi matni yangi tahrirda bayon etilgan. Mazkur moddaning yangi tahririga muvofiq xususiy ayblov toifasidagi jinoyat ishlari ro`yxati kengaytirildi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatlar to`g`risidagi yana 9 ta moddasida ko`rsatib o`tilgan jinoyatlar (qasddan badanga o`rtacha og`ir shikast etkazish, qasddan badanga engil shikast etkazish, qiyash, ehtiyyotsizlik orqasida badanga o`rtacha og`ir yoki og`ir shikast etkazish, ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to`sinqinlik qilish, tuhmat, haqorat qilish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish bilan bog`liq jinoyatlar) yuzasidan ishlar aybdorni javobgarlikka tortishni so`rab jabrlanuvchi bergen shikoyat arizasi asosidagina qo`zg`atiladi.

Bundan tashqari, Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining jinoyat ishini qo`zg`atishni rad qilishga bag'ishlangan 333-moddasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud jinoyat ishini qo`zg`atishni rad qilish to`g`risidagi qarorning yoxud ajrimning nusxasini prokurorga yuborishi to`g`risidagi qoida bilan to`ldirildi.□

* * *

«Davlat statistikasi to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o`zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat statistikasini tashkil etishga oid munosabatlар xalqaro standartlar va normalar bilan bir xil bo`lishini ta'minlashdan iborat. Qonun bilan «Davlat statistikasi to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning bir qator moddalariga o`zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, Qonunning davlat statistika organlari tarkibini va ular faoliyatining asoslarini aniqlashtiruvchi «Dalat statistikasi organlari» deb nomlangan 5-moddasi Davlat statistika qo`mitasi davlat statistikasining vakolatli organi ekanligini va uning faoliyati asoslarini belgilab beradigan birinchi qism bilan to`ldirildi. Shuningdek, Qonun faqat vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarni olib beradigan «Davlat statistikasi vaolatli organi» deb nomlangan 51-modda bilan, uning davlat statistikasi organlarining huquqlariga bag'ishlangan 6-moddasi statistika organlariga yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining davlat statistika kuzatuvlarini o`tkazish huquqini beradigan qism bilan, «Davlat statistika kuzatuvlari» deb nomlangan 11-moddasi 51-moddada belgilangan norma va talablardan kelib chiqqan holda davlat statistika kuzatuvlarini o`tkazish usullari davlat statistikasining vakolatli organi tomonidan belgilanishini aniqlashtiradigan, shuningdek xo`jalik yurituvchi sub'ektlardan qo'shimcha hisobot talab qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat statistikasi organlari tomonidan faqat Davlat statistika ishlari dasturiga kiritilgan davlat statistika kuzatuvlarigina amalga oshirilishini, idoraviy statistika kuzatuvlari esa davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari tomonidan o`z vakolatlari doirasida davlat statistika kuzatuvlari shakllari bo'yicha amalga oshirilishi mumkinligini belgilab qo'yadigan qism bilan to`ldirildi.

«Davlat statistikasi to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning «Statistika ma'lumotlarini taqdim etish» deb nomlangan 13-moddasi bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangi tahrirda bayon etildi.

* * *

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o`zgartishlar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning maqsadi fuqarolarning pensiya ta'minoti to`g`risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishdir.

Jumladan, Qonunga asosan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 1, 6, 40 va□

64-moddalariga «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to`g`risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiq o`zgartishlar kiritildi.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining o'rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiy tartibiga bag'ishlangan 31-moddasiga kiritilgan o'zgartishlarning asosiy mohiyati pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o'tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlangan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda qayta hisoblanishining belgilab qo'yilishidadir.

Bu o'zgartishlar o'tgan davrlardagi inflyatsiya darajasi, narx-navoning oshib borishi oqibatlardan fuqarolarning daromadlarini himoyalash, ularning ijtimoiy manfaatlarini muhofaza qilish, pensiyalar tayinlashda fuqarolar pensiya so'rab murojaat etishidan ko'p yillar avval olingan ish haqlarini hozirgi paytdagi ish haqlari darajasiga tenglashtirish uchun ish haqlarini qayta hisoblashni taqozo etadi. □

Misol uchun, fuqaroning 2007 yil yanvaridagi oylik ish haqi 95000 so'm bo'lган. Agar to'g'ridan-to'g'ri ushbu ish haqidan pensiya tayinlansa, uning miqdori 52000 so'mni tashkil qiladi, xolos.

Shuning uchun yangi kiritilgan mexanizmga ko'ra, fuqaroning oylik ish haqi 95000 so'm, o'sha davrdagi belgilangan minimal ish haqiga nisbatan □

7,7 marta kattaligi aniqlanib, ushbu raqam bugungi kundagi minimal ish haqiga ko'paytirilib, hozirgi kundagi pensiya chiqarilsa, uning miqdori □ 190000 so'mni tashkil qiladi yoki 2007 yildagi pensiyaga taqqoslansa, bu miqdor qariyb 4 marotaba yuqori bo'ladi. Buning natijasida pensiya so'rab murojaat etgan fuqaroning pensiya tayinlash uchun olinadigan ish haqi ijtimoiyadolat tamoyillariga mos ravishda hozirgi zamon ish haqlariga tenglashtirilishiga, har bir fuqaroning bu boradagi haq-huquqlari ta'minlanishiga erishiladi. □

Qonuning pensiyalarni hisoblab □ chiqarishda e'tiborga olinadigan ish haqi turlariga bag'ishlangan 32-moddasiga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalanmaydigan shaxslarga pensiya hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqiga qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallari hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga o'xshash pul ta'minotining barcha turlari qo'shiladi. Shuningdek, o'quv davrida to'langan stipendiya pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra ish haqiga tenglashtiriladi.

Qonuning chet elda ishlangan davr uchun ish haqini hisoblab chiqarishga bag'ishlangan 36-moddasining yangi tahririga muvofiq, chet elda ishlagan O'zbekiston fuqarolarining pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

* * *

Senatning ettinchi yalpi majlisida ma'qullangan «Raqobat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasining ustuvor yo'naliishlarini demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish sohasida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi R-3557-sonli Farmoyishini ijro etish yuzasidan ishlab chiqilgan. Ushbu Qonunning maqsadi raqobatni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish va monopolistik faoliyatni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

7 ta bob va 40 ta moddadan iborat bo'lган Qonun quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) tovar □ yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallagan shaxslar guruhiga, monopol yuqori va monopol past narxlarga aniqlik kiritish;
- 2) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida taqiqlangan harakatlarining oldini olish bo'yicha mexanizmni takomillashtirish;
- 3) tanlov (tender) savdolari va birja savdolariga qo'yiladigan monopoliyaga qarshi talablarni belgilash; □ □

- 4) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etish, qo'shib yuborish va birlashtirishga doir monopoliyaga qarshi talablarni aniqlash; □
- 5) raqobat to`g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan xo'jalik yurituvchi sub'ektni majburiy tarzda bo'lib yuborish (ajratib chiqarish) tartibini belgilash; □□
- 6) monopoliyaga qarshi organning vakolatlariga tegishli o'zgartishlar kiritish;
- 7) monopoliyaga qarshi organ, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining raqobat munosabatlari bo'yicha huquq hamda majburiyatlarini belgilash;
- 8) raqobat to`g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarimalar solishning amalga oshirilishi tartibini belgilash; □
- 9) raqobat to`g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqida ishlar qo'zg'atish, shuningdek monopoliyaga qarshi organning qarori va ko'rsatmasini ijro etish hamda ularning ustidan shikoyat qilish mexanizmini belgilash.

* * *

«Telekommunikatsiyalar to`g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini axborot muhitini isloh qilish va so'z hamda axborot erkinligini ta'minlash sohasida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to`g'risida»gi R-3560-sonli Farmoyishini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan parlament muhokamasiga kiritilgan.

Qonunga muvofiq telekommunikatsiyaga oid munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish maqsadida «Telekommunikatsiyalar to`g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2-moddasidagi «telekommunikatsiyalar tarmog'i», «oxirgi (terminal) asbob-uskunalar» va «telekommunikatsiya operatori» tushunchalariga bir qator aniqliklar, shuningdek «Internet jahon axborot tarmog'i», «domen nomi» kabi yangi tushunchalar kiritildi.

Qonunning 8-moddasiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar telekommunikatsiya sohasida maxsus vakolatli organning vakolatlarini yanada aniqlashtirishga va demak, mas'uliyatini oshirishga ham qaratilgan. □ Qonunga yangi 81-modda kiritilgan bo'lib, unda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlarining samarali ishoshi hamda rivojlantirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi borasidagi majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Qonundagi tahririyl o'zgartishlar telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va qayta qurish mexanizmlariga oid moddalarga daxlordir.

* * *

«Intellektual mulk to`g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi «O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to`g'risida»gi PQ-1536-sonli Qarorini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan parlament muhokamasiga kiritilgan.

Qonunning maqsadi intellektual mulk to`g'risidagi qonun hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qaroriga moslashtirishdan iborat.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga, Soliq kodeksiga, «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to`g'risida»gi,

«Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to`g`risida»gi, «Selektsiya yutuqlari to`g`risida»gi, «Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to`g`risida»gi, «Tovar belgilari, xizmat ko`rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to`g`risida»gi qonunlariga hamda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 mayda qabul qilingan «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro`yxati to`g`risida»gi 222-II-sonli Qaroriga o`zgartishlar kiritildi.

Mazkur o`zgartish va qo`shimchalar asosan O`zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi va O`zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O`zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi tashkil etilishi bilan bog`liqdir.

* * *

«Er osti boyliklari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 26 va 27-moddalariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 2 maydagidagi «Noruda foydali qazilmalarni o`z ichiga olgan er qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish tartibi to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi PQ-1524-sonli Qarori asosida ishlab chiqilgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qarori bilan tasdiqlangan Noruda foydali qazilmalarni o`z ichiga olgan er qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish tartibi to`g`risidagi Nizomning 5-bandida daryolarning o`zanlarini tozalash, kanallar va kollektorlar qurish hamda ularni tozalashda hosil bo`ladigan chiqindilardan foydalanishda litsenziya olish talab qilinmasligi belgilab qo`yilgan. Shu munosabat bilan «Er osti boyliklari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasi foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog`liq bo`Imagan holda daryolarning o`zanlarini, kanallar va kolektorlarni tozalashda litsenziya olish talab qilinmasligi to`g`risidagi qism bilan to`ldirildi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil

2 maydagidagi PQ-1524-sonli Qarori talablari asosida «Er osti boyliklari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni 27-moddasi geologik jihatdan o`rganish, tajriba-sanoat yo`sinda kavlab olish, noruda foydali qazilmalarni kavlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun noruda foydali qazilmalarni o`z ichga olgan er qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziyalar O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Noruda foydali qazilmalarni o`z ichiga olgan er qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish bo`yicha komissiyasi tomonidan berilishi to`g`risidagi qoida bilan to`ldirildi.

* * *

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011–2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida»gi PQ-1438-sonli Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan «Soliq maslahati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining maqsadi «Soliq maslahati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunini soliq maslahati instituti bosib o`tgan qaror topish bosqichini hisobga olib takomillashtirishdan, soliq maslahati sohasidagi faoliyatni tartibga solish tizimini yanada rivojlantirishdan iborat.

Qonunga binoan soliq maslahati sohasidagi faoliyat tushunchasi yanada aniqroq ta`riflandi, «Soliq maslahati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining amal qilish doirasiga kirmaydigan faoliyatni aniqlashtirish va uning ishtirokchilarini belgilash uchun ushbu Qonunning 3-moddasiga tegishli o`zgartishlar kiritildi. Shuningdek, «Soliq maslahati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga soliq solish ob`ektlarini va soliq solish bilan bog`liq ob`ektlarni belgilash va hisobini yuritishni, shuningdek mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliq hisobotini tuzishda va taqdim etishda yordam berishni nazarda tutadigan o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi.

«Soliq maslahati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunga kiritilgan yangi 61-modda soliq maslahati xizmatlarini ko`rsatish to`g`risida shartnoma tuzish shartlarini nazarda tutadi. Ushbu Qonuning 11-moddasi birinchi qismiga soliq maslahatchilarini tashkilotlarining huquqlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi. Xususan, soliq maslahatchilarini tashkilotiga davlat soliq xizmati organlarida, shuningdek soliq bo`yicha nizoni sudgacha hal qilish jarayonida va sudda soliqqa oid qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda vakil sifatida ish olib borish huquqi, soliq maslahatchilariga esa soliq tekshiruvlarini o`tkazish vaqtida soliq solish masalalari bo`yicha maslahat xizmatlarini ko`rsatish huquqi berildi.

* * *

«O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagagi PQ-1474сонли Qarori bilan tasdiqlangan «Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik yili» Davlat dasturi 1-bandini ijro etish yuzasidan ishlab chiqilgan. Qonunning maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirdorlik faoliyati sohasidagi huquqiy munosabatlar yaxlit va tizimli tartibga solinishimi ta'minlash, hozirgi talablarga javob bermaydigan eskirgan normalarni qayta ko`rib chiqish va bekor qilishdir. Shu nuqtai nazardan, Qonunga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 137, 512 va 1056-moddalariga, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 285-moddasiga, O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 175-moddasiga, «Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni 19-moddasiga, «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning 19-moddasiga, «Qishloq xo`jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning 13, 19-moddalariga, «Rietorlik faoliyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning 18-moddasiga, «Xo`jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning 34-moddasiga, «Psixiatriya yordami to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning 3 va 16-moddalariga, «Mas'uliyati cheklangan va qo`shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning 14, 34-moddalariga tegishli o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi.

* * *

«O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning asosiy maqsadi tasdiqlangan 2012 yilgi soliq siyosatining kontseptsiyasini amalga oshirish uchun huquqiy sharoitlar yaratish va qonun hujjatlarining ayrim normalarini aniqlashtirishdan iborat.

Qonunda O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksiga, Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksiga, Soliq kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish nazarda tutilgan.

Xususan, O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi jismoniy shaxslar o`rtasida binoni, inshootni va turar joyni ijaraga berish shartnomasini notarial rasmiylashtirmaganlik uchun fuqarolarga ma'muriy javobgarlik belgilash choralarini nazarda tutadigan yangi 1591-modda bilan, 160-moddasi yangi qurilgan uy-joyga egalik huquqini tegishli organlarda o`z vaqtida rasmiylashtirmagan taqdirda fuqarolarga ma'muriy javobgarlik chorasini belgilashni nazarda tutadigan qoida bilan to`ldirildi.

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 574 va 603-moddalariga hamda O`zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 86-moddasiga kiritilgan qo`shimchalar fuqarolar o`rtasida tuzilgan uy-joyni ijaraga berish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo`lishi kerakligini nazarda tutadi.

Qonunga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ayrim moddalariga soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lash, mehnat natijalari bilan bog`liq bo`lman bir yo`la beriladigan mukofotlarni, ta'tilga qo`shimcha haqlar, oziq-ovqat va yo`l chiptalarining qiymatini qoplash, shuningdek xodimlarga ta'til uchun belgilangan normalardan ortiqcha to`langan haq va ular bo`yicha pullik kompensatsiyalarni foyda solig`ini hisoblashda chegirib tashlanadigan mehnatga haq to`lash xarajatlari tarkibiga kiritish, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, mol-mulk solig`i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i bo`yicha joriy to`lovlarni to`lashning yagona muddatini belgilash, soliqdan ozod etish tarzidagi ayrim imtiyozlarni bekor qilish, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlar ko`rsatish huquqi uchun yig`im bo`yicha hisob-kitobni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish tartibini belgilashga oid bir qator o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi.

* * *

Yalpi majlisda ma'qullangan «Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining 2006 yilgi (Antaliya) va 2010 yilgi (Gvadalaxara) Vakolatli konferentsiyalari tomonidan Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining Ustavi va Konventsiyasiga doir qabul qilingan Tuzatish hujjatlarini ratifikatsiya qilish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilishdan maqsad Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining 2006 yilgi (2006 yil 6–24 noyabr, Antaliya shahri, Turkiya) va 2010 yilgi (2010 yil 4–22 oktyabr, Gvadalaxara shahri, Meksika) Vakolatli konferentsiyalari yakunlari bo`yicha imzolangan Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining Ustavi va Konventsiyasiga doir Tuzatish hujjatlarini o`z ichiga olgan Yakuniy hujjatlarni ratifikatsiya qilishdan iborat. O`zbekiston Respublikasi 1992 yildan buyon Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining a'zosi, shuningdek Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining 1994 yilgi Vakolatli konferentsiyasi (Kioto), 1998 yilgi Vakolatli konferentsiyasi (Minneapolis) va 2002 yilgi Vakolatli konferentsiyasi (Marokash) tomonidan tuzatishlar kiritilgan Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi Ustavi va Konventsiyasining (Jeneva, 1992 yil) Tomoni hisoblanadi. □
Mazkur hujjatlarning ratifikatsiya qilinishi boshqa a'zo-davlatlar bilan tenglik asosida O`zbekiston Respublikasining Xalqaro elektr aloqasi ittifoqidagi manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi, mamlakatning xalqaro maydonidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi, standartlashtirish bo`yicha xalqaro faoliyatdagi ishtirokini kengaytiradi, xalqaro va mintaqaviy standartlardan foydalanishga, normativ hujjatlarning xalqaro normativ hujjatlar bilan uyg`unlashuviga, shuningdek zamonaviy innovatsiya texnologiyalarining joriy etilishiga, tarmoq mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirishga imkon beradi.

* * *

«Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo`yicha Evrosiyo guruhi to`g`risidagi Bitimni (Moskva, 2011 yil 16 iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining asosiy maqsadi 2011 yil 16 iyunda Moskva shahrida Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga□ qarshi kurashish bo`yicha Evrosiyo guruhining 14-yalpi majlis doirasida imzolangan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga□ qarshi kurashish bo`yicha Evrosiyo guruhi to`g`risidagi Bitimni ratifikatsiya qilishdan iborat.

Mazkur Bitimni tuzishdan asosiy maqsad Evrosiyo guruhini□ mintaqalararo hukumatlararo□ tashkilotga aylantirish, uning faoliyati huquqiy asoslarini yaratishdan iboratdir.

Evrosiyo guruhi to`g`risidagi Bitim uning□ faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat qoidalari Evrosiyo guruhining asosiy maqsad va vazifalarini, Evrosiyo guruhi organlari (Yalpi majlis, Kotibiyat), Evrosiyo guruhida raislik qilish, shu jumladan raislikka nomzodlarni ko`rsatish tartibini,□ a'zo davlatlarning, kuzatuvchilarining huquq va majburiyatlarini, Evrosiyo guruhi faoliyatini moliyalashtirish tartibini belgilab beradi. □

Mazkur Bitimni ratifikatsiya qilish□ O`zbekiston Respublikasiga Evrosiyo guruhiga a'zo boshqa davlatlar bilan

bir qatorda mintaqaviy darajada□ samarali o`zaro aloqani va hamkorlikni hamda FATF tavsiyalariga va boshqa xalqaro tashkilotlarning□ standartlariga muvofiq□ jinoiy daromadlarni□ legallashtirishga va terrorizmni moliyalashga qarshi kurashish□ xalqaro tizimiga□ integratsiyalashish imkonini□ beradi.

* * *

«Shanxay hamkorlik tashkilotining Terrorizmga qarshi konventsiyasini (Ekaterinburg, 2009 yil 16 iyun) ratifikatsiya qilish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a`zo davlatlar boshliqlari Kengashining 2009 yil 16 iyunda Ekaterinburg shahrida bo`lgan majlisida imzolangan Shanxay hamkorlik tashkilotining Terrorizmga qarshi□ konventsiyasini ratifikatsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu xalqaro-huquqiy hujjatni qabul qilish zaruriyati terrorizm mazmun-mohiyatidagi, terroristik aktlarning□ xarakteri va ko`lamidagi o`zgarishlar, hozirgi dunyodagi terrorizm g`oyalarining o`sib borishi bilan bog`liqdir. Konvensiya terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash haqidagi Shanxay konventsiyasining tegishli qoidalarini rivojlantiradi. Ushbu Konvensiyaga muvofiq terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning□ qo`shimcha mexanizmlarini ishlab chiqish□ paydo bo`layotgan□ imkoniyatlardan samarali foydalanishga yordam berishi va yangi tahdidlarga qarshi turishi kerak.

Konvensiyani imzolash vaqtida O`zbekiston Respublikasi tomonidan quyidagi□ shart qo`ylgan: «Konvensiya qoidalarining yuridik va jismoniy shaxslar□ mol-mulkini jinoiy jazo chorasi sifatida musodara qilishni qo`llash mumkinligi haqidagi qismi milliy qonunchilikka muvofiq emasligi sababali O`zbekiston Respublikasida qo`llanilmaydi».

* * *

Yalpi majlisda Samarqand viloyatining Samarqand shahri, Oqdaryo va Samarqand tumanlari chegaralarini o`zgartirish to`g`risidagi masala ham ko`rib chiqildi.

Mazkur masala yuzasidan qabul qilingan Senat Qarorida Samarqand viloyati Samarqand tumani hududining bir qismini (Bog`ibaland qishloq fuqarolar yig`inining Azizon, Bog`ibaland, Bog`ibolo, Bog`imaydon, Jo`yichuqur, Kundiso`fi, Motrid, Navro`z, Toshloq, Xo`jaqishloq, Xo`jag`unjoish, Chilstun, Chorbog`, Qir va Qo`rg`oncha; Kattaqo`rg`onariq qishloq fuqarolar yig`inining Yuqori Xo`jasoat, O`rta Xo`jasoat va Quyi Xo`jasoat; Ohalik qishloq fuqarolar yig`inining Garmako, Mo`liyon, Safedi va Qavola; Ulug`bek qishloq fuqarolar yig`inining Bekxo, Bog`iobod, Dukchigi, Ko`l, Navbog`chiyon, Sarsteppo, Temirqishloq va Xo`ja G`ulom; Qaynama qishloq fuqarolar yig`inining Quyi qaynama; Qo`shtamg`ali qishloq fuqarolar yig`inining Galaosiyo, Kaftarkhona va Cho`ponota mahallalari hududi) –□

3399 hektar maydonini Samarqand shahri tarkibiga, bir qismini esa (Bog`ibaland qishloq fuqarolar yig`inining Chorbog`-2 mahallasi hududi) – 1471 hektar maydonini Oqdaryo tumani tarkibiga o`tkazish nazarda tutilgan.

* * *

Yalpi majlisda Mamlakatimzda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi va «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunidan kelib chiqadigan talablarni amalga oshirish maqsadida «Xo`jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuning Farg`ona viloyati soliq organlari tomonidan bajarilishi haqida O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi raisi B.R.□Parpievning axboroti to`g`risida»gi masala ko`rib chiqildi.

Mazkur masala yuzasidan qabul qilingan Senat Qarorida□O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi raisi zimmasiga xo`jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to`g`risidagi qonun hujjatlari qoidalarining maqsadi, mazmuni, amaliy ahamiyati ommaviy axborot vositalari orqali keng

yoritilishini ta'minlash, soliq organlarining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni buzilishiga yo'l qo'yayotgan mansabdar shaxslariga nisbatan ta'sirchan javobgarlik choralarini ko'rish, soliq organlari mansabdar shaxslarining huquqiy bilimlari darajasini oshirish, soliq organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlar qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etgan holda o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha va boshqa bir qator vazifalar yuklatildi.

* * *

Ettinchi yalpi majlisda Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidan kelib chiqadigan talablarni amalga oshirish maqsadida «Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosati olib borilishini ta'minlash borasida adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri N.T.□ Yo'ldoshevning axboroti haqida»gi masala ham ko'rib chiqildi.

Mazkur masala qabul qilingan Senat Qarorida□ O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri zimmasiga davlat organlari, jamoat tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishini muvofiqlashtirish doirasida olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligi va foydaliligi ta'sirchan monitoring qilinishini ta'minlash, adliya organlariga huquqiy ekspertizaga taqdim etilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatini oshirish bo'yicha tadbirlar majmuini ro'yoga chiqarish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlash va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, e'lon qilish hamda manfaatdor shaxslar e'tiboriga etkazishning belgilab qo'yilgan tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish masalasini ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatildi.

* * *

Senatning ettinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisini saylash, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tarkibiga o'zgartish kiritish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasining Yaponiyadagi Favqulodda va Muxtor Elchisi lavozimiga tayinlash to'g'risidagi masalalar ham ko'rib chiqildi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.



[Senat 2-yalpi majlisi materiallari](#)(39 kb)



[Senat 3-yalpi majlisi materiallari](#)(18 kb)



[Senat 4-yalpi majlisi materiallari](#)(21 kb)



[Senat 5-yalpi majlisi materiallari](#)(57 kb)



[Senat 6-yalpi majlisi materiallari](#)(19 kb)



(156 kb)